

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019. Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**ATABOYEV ISROILJON MIRZA O‘G‘LI**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “TA’NA-DASHNOM”  
KONSEPTINING VOQEALANISHI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Ataboyev Isroiljon Mirza o'g'li**

Ingliz va o'zbek tillarida "ta'na-dashnom" konseptining voqealanishi ..... 3

**Атабоев Исроилжон Мирза угли**

Репрезентация концепта «упрёк-порицание» в английском и узбекском языках ..... 25

**Ataboyev Isroiljon Mirza o'g'li**

Representation of the concept of "reproach-reprimand" in English and Uzbek languages ..... 51

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of publications ..... 55

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019. Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**ATABOYEV ISROILJON MIRZA O‘G‘LI**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “TA’NA-DASHNOM”  
KONSEPTINING VOQEALANISHI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2925 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rustamov Ilxom Tursunovich**  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Teshaboyeva Ziyodaxon Qodirovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc. 03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)); e-mail: [monitoring@navoiy-uni.uz](mailto:monitoring@navoiy-uni.uz))

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_) raqam bilan ro‘yxatga olingan. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_-raqamli restr bayonnomasi)

**N.Z.Normurodova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash asosidagi bir martalik ilmiy  
kengash raisi, filol.f.d., professor

**Q.U.Pardayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash asosidagi bir martalik ilmiy  
kengash ilmiy kotibi,  
filol.f.d., professor

**H.A.Dadaboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi bir martalik ilmiy  
seminar raisi o‘rinbosari raisi,  
filol.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligidagi hozirgi antroposentrik tadqiqotlar tilning inson madaniyati va ongiga ta'sirini tushunishda asosiy rol o'ynaydi, tadqiqotlar inson faoliyati, madaniyat va texnologiya kontekstida til qanday shakllangani hamda rivojlanishini idrok etishga yordam beradi. Lingvistik antropologiya sohasidagi tadqiqotlar tilning shakllanishiga qanday omillar ta'sir qilishini, bunga ijtimoiy tuzilmalar, tarixiy voqealar, texnologik innovatsiyalar va inson hayotining boshqa ko'plab jihatlarini o'rganadi. Uzlüksiz takomillashib borayotgan til va madaniyat, til hamda jamiyat munosabatlariga oid ilmiy izlanishlar ham aynan inson lisoniy ijodkorlik faoliyati namunalarining turli qirralarini qardosh bo'lmagan tillar va lisoniy madaniyatlar ko'lamida chog'ishtirma o'rganilishini taqozo etadi zero ularning turli til aspektlardagi tadqiqi nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Dunyo lingvistikasida kognitiv va pragmatik paradigmalarning integratsiyalashuvi til va muloqot haqida yanada chuqur hamda keng tasavvurlarga ega bo'ladi. Ushbu paradigmalarni birlashtirib, tadqiqotchilar tilning shakllanishiga asos bo'lgan aqliy jarayonlar, dunyoni idrok etishni shakllantiruvchi kognitiv tuzilmalar va ularning nutq va kommunikativ xatti-harakatlar orqali ifodalanishi haqida tushunchaga ega bo'ladilar. Ushbu integratsiya til hodisalarini yanada keng tahlil qilishga yordam beradi, tadqiqotchilarga bilish, til va ijtimoiy o'zaro ta'sir o'rtasidagi murakkab aloqalarni o'rganish, shuningdek, bu munosabatdan "ta'na-dashnom" konseptini kognitiv va pragmatik yondashuvlardan foydalangan holda o'rganish ushbu tushunchaning til va jamiyatda qanday ishlashini chuqur tushunishga imkon beradi. Har ikkala yondashuv bir-birini to'ldiradi, muloqotda "ta'na-dashnom" konseptining roli va ahamiyatini ochib beradi. Ushbu sohadagi keyingi izlanishlar insonlar o'rtasida kundalik hayotimiz va madaniyatlararo ijobiy munosabatlar o'rnatilishida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ro'y berayotgan so'nggi islohotlar davrida turli sohalar, ayniqsa, sun'iy intellekt va kompyuter lingvistikasi shiddat bilan rivojlanib bormoqda. O'z navbatida, xalqaro madaniy aloqalar tufayli har bir xalq kommunikativ me'yorlarini, maxsus leksikasini o'rganishga ham ehtiyoj tug'ildi, uni mahalliy nomlar bilan qiyoslab, yaxlit bir tizim holiga keltirish hozirgi tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunonchi, "Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir"<sup>1</sup>. Shu munosabatdan, olam milliy konseptual manzarasini fanlararo, paradigmalarning integratsiyasida yoritib berish masalalari tilshunoslar tomonidan o'z yechimini kutib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"<sup>2</sup>gi farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 21.10.2021-yildagi PF-5850-son Farmoni.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" 16.02.2017 yildagi PF-4958-son.

tadbirlari to‘g‘risida”<sup>3</sup>gi qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta‘lim muassasalarida chet tillarini o‘qitish sifatini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”<sup>4</sup>gi qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi O‘RQ-576-sonli “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”<sup>5</sup>gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>6</sup>gi 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Kognitiv tilshunoslikning tadqiqot obyekti bo‘lgan “olam milliy manzarasi”, “konsept”, “konseptsfera” kabi tushunchalar bilan bog‘liq tadqiqotlar biroz ertaroq, o‘tgan asrning ikkinchi yarmi nashrlarida ko‘zga tashlanadi. Ular orasida o‘zbek, rus va ingliz tilshunosligida amalga oshirilgan ishlar talaygina. Xorijiy olimlardan: G.Lakoff, R.Langacker, D.Vanderveken, P.Cole & J.Morgan, K.Bach, R.M.Harnish, J.Verschueren, J.R.Searle, P.F.Strawsonlar<sup>7</sup>. Rus va chet ellik olimlaridan, S.A.Askoldov, Yu.S.Stepanov, V.I.Karasik, N.V.Petlyuchenko, O.P.Kasimova, L.E.Kuznetsova, S.A.Malaxova, I.V.Nesvetaylova, T.A.Davidova, A.L.Fyodorova, N.A.Karaziya, A.N.Prixodko, V.Ye.Scherbina, A.M.Kusainova, V.Z.Demyankov, T.S.Medvedeva, T.A.Yashenko, O.P.Saxno, Ye.V.Dzyuba, A.A.Grigorev, Yu.Ye.Proxorov, D.V.Dordjjeva, V.Yu.Xaritonova, N.V.Bogdanova, Ye.A.Menzairova, G.G.Slishkin, V.A.Brukvinalar<sup>8</sup>. O‘zbek olimlaridan D.U.Ashurova,

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 20.04.2017-yildagi PQ-2909-son

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, “Ta‘lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 11.08.2017-yildagi 610-son

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” 29.10.2019-yildagi O‘RQ-576-son

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 19.05.2021-yildagi PQ-5117-son

<sup>7</sup> George Lakoff and Mark Johnson, *Metaphors We live by*, The University Chicago Press. Chicago, 1980. – 242 p; Ronald Langacker, *Cognitive grammar: a basic introduction* Published by Oxford University Press, Inc. 198 Madison Avenue, New York, 2008 – 127 p. 573 p; Vanderveken D. *Meaning and speech acts*. Cambridge: Cambridge University Press 1990; Cole P & Morgan J. *Syntax and semantics, vol. 3: speech acts*. New York: Academic Press 1975; Bach K & Harnish R M. *Linguistic communication and speech acts*. Cambridge: MIT Press 1979; Verschueren J *On speech act verbs*. Amsterdam 1980: John Benjamins. Searle, J. R.; *Speech acts: An essay in the philosophy of language* 1969. Cambridge: Cambridge University Press. Strawson P F ‘*Intention and convention in speech acts.*’ *Philosophical Review* 1964. – P. 439-460.

<sup>8</sup> Аскольдов С.А. Концепт и слово Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология–Москва: Academia, 1997. – С. 267-280; Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – М.: Академический Проект, 2001. – 990 с; Карасик, В. И. Языковые ключи В.И.Карасик. – Волгоград: Парадигма, 2007. – 520 с; Петлюченко Н. В. Харизматика: мовна особистість дискурсу: монографія Н. В. Петлюченко. – Одеса: Астропринт, 2009. – 464 с; Касымова О.П. Концепты русские, запад и восток в русской языковой картине мира – Уфа: Башкирский государственный университет, 2018. – 160 с; Кузнецова Л.Э., Малахова С.А., Несветайлова И.В. Лингвокультурный концепт: англо-русские параллели. – Армавир: Армавирский государственный педагогический университет, 2015. – 116 с; Малахова С.А. Личностно-эмоциональные концепты «гордость» и «стыд» в русской и английской лингвокультурах. – Армавир: Армавир. гос. пед. акад., 2011. – 207 с; Несветайлова И.В. Эмоциональные концепты «зависть» и «ревность» в русской и английской лингвокультурах. – Армавир: РИО АГПА, 2012. – 176 с; Давыдова, Татьяна Александровна,

M.I.Sheraliyeva, S.Ziyotova, A.Xasanova, O.Maxmudov, G.K.Kdirbayeva kabilar tomonidan bir qator monografiyalar, maqolalar va ilmiy ishlanmalar chop etilgan<sup>9</sup>. O‘zbek tilshunosligida nutqiy aklarni birinchi bo‘lib, M.Hakimov o‘zining “O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini”<sup>10</sup> nomli doktorlik dissertatsiyasida atroflicha tahlil etgan. Sh.S.Safarovning “Pragmalingvistika”<sup>11</sup>, “Kognitiv tilshunoslik”<sup>12</sup> nomli monografiyalarida nutqiy aklarning mohiyati, ularning voqelanishi haqida juda keng, ilmiy mushohadaga boy ma‘lumotlar bayon qilingan. Hozirgi vaqtda bu soha bilan shug‘ullanayotgan tadqiqotchilar ko‘pchilikni tashkil qiladi, bu til konseptferasi tadqiqida muhim bosqich sanaladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan aloqasi.** Dissertatsiya Toshkent davlat transport universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Xorijiy tillarni o‘qitishning samaradorligini yanada oshirish amaliyoti, chog‘ishtirma tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik sohasida “Ingliz va o‘zbek tillarida “ta’na-dashnom” konseptining voqelanishi” mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

---

Речевой акт упрека в английском языке. diss. – М.: 2003. – 164 с; Фёдорова, Анна Леонидовна. Речевая стратегия упрека: лингвокогнитивный подход. Дис. ... канд. филол. наук: – М.: 2005. – 194 с; Каразия, Наталья Александровна, Прагмалингвистическое исследование акта упрека в контексте современной американской речевой культуры. Дис ... канд. филол. наук: – М.: 2005. – 231 с; Приходько А. Н. Taxonomy of concepts (с.144-171) Linguocon-ceptology: perspective management, (under the editorship of AE Levitsky, SI Potapenko, IV Nedainova), Lugansk: Izd-vo GU „LNU named after Tarasa Shevchenko”, 2013., 624 p; Щербина, В. Е. Концепт "время" во фразеологии немецкого и русского языков. Монография, Российская государственная библиотека (РГБ) 2015; Кусаинова А.М. Мировоззренческие концепты в творчестве поликультурного казахстанского писателя Г.Бельгера. Монография. – Костанай: Костанайский филиал Чел ГУ, 2020. – 78 с; Демянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретационного подхода В.З.Демянков Вопросы языкознания. – 1994. – № 2. – 56 с; Концепт Sparsamkeit как константа немецкой лингвокультуры Т.С.Медведева Вестник Удмуртского университета. Сер. История и филология. 2018. – С. 429-435; Ященко Т.А., Сахно О.П. Душа как ключевой культурный концепт киноповести В.М. Шукшина Калина красная "Культура народов Причерноморья", том 49 (I). – С. 72-74; Сахно 1991. С.Л.Сахно. “Свое – Чужое” в концептуальных структурах. – В: Логический анализ языка; Культурные концепты. – Москва, 1991. – С. 95-101; Дзюба Е.В. Особенности содержания концепта ум в языке Древней Руси Известия Уральского федерального университета. Серия 2: Гуманитарные науки, № 3, 2010. – С. 175-187; Григорьева, Папулинова 2003. В. Григорьева, И.Папулинова. Жестовый фрейм, его структура и свойства. – В: Обработка текста и когнитивные технологии, № 8, 2003. – С. 109-116.; Прохоров Ю.Е. В поисках концепта. – М., 2008. – С. 17.; Дорджиева О.Б. Концептуальные подходы к определению приоритетов аграрной экономической политики Республики Калмыкия на современном этапе: монография. Элиста: Изд-во КГУ, 2013. – С. 146; Харитоновна Е.Ю. Лексикографическое описание лексикофразеологические поля черты характера человека на материале современного немецкого языка: Дисс канд филол наук. – Москва, 2005. – С. 244.; Богданова Н. В. Русская спонтанная речь: корпусный подход и результаты исследования. Сборник статей. – Saarbrücken: Palmarium. Academic Publishing, 2012. – 409 с; Мензаирова Екатерина Алексеевна Актуализация концептов «любовь» и «женщина» в песенном дискурсе Специальность 10.02.19 – Теория языка Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук ИЖЕВСК – 2010. – С. 187.; Слышкин Г.Г. От текста к символу. Лингвистические концепты прецедентных текстов в слушании или дискурсе. М.: Академия, 2000; Бруквина Виктория Анатольевна концепты животных и птиц в языковой картине мира (на материале нестандартной лексики английского языка) Спб., 2016.

<sup>9</sup> Ашурова Д.У. Связь вузовских курсов с современными направлениями лингвистики Филологиянинг долзарб муаммолари: Маъруза тезислари. – Тошкент. 2008. – Б. 11. Шералиева, М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя (ижтимоий-психологик омиллар поэтик тизимдаги ўрни). Тошкент, 2017; Ziyotova S. “Mehrobdan chayon” romanida ironiya hodisasi № 11. Til va adabiyot ta’limi, 2020; Хасанова А. Ўқувчи-ёшлар тарбиясида рағбатлантириш ва танбех мезони монография Коммунистик ахлоқ масалалари. №5. Тошкент: Ўзбекистон, 1980; Махмудов О. Ота нега фарзандига танбех беради. Тошкент: Гафур Гулом, 2005; Кдырбаева Г.К. «Ман» – «адам» концептосфераси бирликларининг лингвомаданый ва лингвокогнитив хусусиятлари (инглиз ва коракалпок тиллари мисолида): Филол. фанл. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – В. 45.

<sup>10</sup> Hakimov M. O‘zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari. Filol.fan.nomz...dis. – Toshkent, 1993.

<sup>11</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008, – Б. 76.

<sup>12</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшunoslik. Сангзор, 2006. – Б. 92.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz va o‘zbek etnojamiyatlarida “ta’na-dashnom” konseptidan foydalanishdagi universal va farqli jihatlarni shakllantiruvchi kommunikativ omillarning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tanbeh bilan bog‘liq kommunikativ kategoriyalar hamda turli lingvistik konseptlarni aniqlash va tizimlashtirish, “ta’na-dashnom” muloqot hodisasini nutq strategiyasi sifatida asoslash va ularning tarkibiy tuzilmasidagi etnospetsifik xususiyatlarni ochib berish;

ingliz va o‘zbek lingvomadaniy kontekstlarida tanbeh nutq strategiyasidan samarali foydalanishning ekstralingvistik shartlarni tadqiq etish;

ingliz va o‘zbek nutqlarida odatiy tanbeh vosita va usullarini ajratish hamda ushbu usulni tavsiflovchi lingvistik xususiyatlarni aniqlash;

ta’na-dashnom konseptini salbiy bahoni bilvosita ifodalash shakli, shuningdek, oqilona va hissiy jihatlarni birlashtirgan hosila sifatida ko‘rib chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi maqol va idiomalar, badiiy adabiyot va ommaviy axborot vositalaridan olingan “ta’na-dashnom” konseptining mohiyati, madaniy va lisoniy xususiyatlari, uning nutq jarayonida qo‘llanishi olingan.

**Tadqiqotning predmetini** “ta’na-dashnom” konseptini amalga oshirish va idrok etishning lingvistik jihatlari, shuningdek, ingliz va o‘zbek til tizimlarida uni kontekstual qo‘llashdagi farq va o‘xshashliklari talqini tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada komponent, lingvomadaniy, chog‘ishtirma, lingvistik tavsiflash, stilistik, pragmatik va konseptual tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ta’na-dashnom konsepti bilan bog‘liq kommunikativ kategoriyalar va turli lingvistik konseptlar aniqlanib, umumlashtirilgan va “ta’na-dashnom” muloqot hodisasi nutq strategiyasi sifatida asoslanib, ularning tarkibiy tuzilmasidagi etnospetsifik xususiyatlari ochib berilgan;

ingliz va o‘zbek tilidagi “ta’na-dashnom”ga oid matnlarni tahlil qilish asosida tanbeh berishning tipik usullari, leksik, stilistik va sintaktik omillarining vazifalari asoslangan;

ingliz va o‘zbek nutqiy vaziyatlarida ta’na-dashnom oluvchi tomonidan bildirilgan hissiy va ekspressiv munosabatlar milliy hamda madaniy xarakterga ega ekanligi dalillangan;

“ta’na-dashnom” kommunikativ maqsadiga erishishda nigoh, yuz ifodasi va sukut kabi paralingvistik vositalarning milliy va madaniy xususiyatlari ochib berilib, “ta’na-dashnom” konseptini sukut orqali bilvosita ifodalashning psixologik samarasi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“ta’na-dashnom” konseptining nominativ maydoni va periferik yadrolari sathi ingliz va o‘zbek tillarida birinchi marta chog‘ishtirma tadqiq etilgan;

ingliz va o‘zbek lingvomadaniy kontekstlarida ta’na-dashnom konseptining nutq strategiyasidan samarali foydalanish uchun ekstralingvistik shartlari tadqiq etildi;

ingliz va o‘zbek nutqlarida odatiy ta’na-dashnom usullari aniqlanib, ushbu usulni tavsiflovchi lingvistik xususiyatlar ochib berilgan;

ta’na-dashnom konsepti salbiy bahoni bilvosita ifodalash shakli, shuningdek, oqilona va hissiy jihatlarni birlashtirgan hosila sifatida dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tahlilga tortilgan materiallar ingliz va o‘zbek tillari tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asosiligi, metodologik mukammalligi, shuningdek, qo‘yilgan masalalarning aniqligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy tilshunoslikda ushbu atamani lingvistik va lingvomadaniy tahlil qilish bo‘yicha to‘plangan bilimlarni tizimlashtirish, shuningdek, ta’na-dashnom konseptining kommunikativ holatini strategik yondashuv ruhida qayta ko‘rib chiqish bilan belgilanishi, kommunikativ ongning etnospetsifikligi haqidagi nazariy tushunchalar lingvistik kognitiv fan va etnopsixolingvistika muammolarini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ilmiy natijalardan qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik va leksikologiyada foydalanish mumkinligi, shuningdek, grammatika, matni tahlil qilish bo‘yicha ma’ruzalar, seminarlar tashkil qilish va dissertatsiyalar, monografiyalar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar yozish, lug‘atlar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:** Ingliz va o‘zbek tillarida ta’na-dashnom konseptining voqealanishini tadqiq qilish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek nutqiy vaziyatda ta’na-dashnom oluvchi tomonidan bildirilgan hissiy va ekspressiv munosabatlar milliy va madaniy xarakterga ega ekanligi dalillanganligi hamda ingliz va o‘zbek tilidagi “ta’na-dashnom”ga oid matnlarni tahlil qilish asosida tanbeh berishning tipik usullari, leksik, stilistik va sintaktik omillarning vazifalari asoslanganligi hamda tadqiqot ishining amaliy ahamiyati tadqiqot materiallari va xulosalaridan qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik va leksikologiyada foydalanish mumkinligiga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy universitetida 2021-2022-yillar davomida bajarilgan “Davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirish kursi uchun elektron platforma yaratish (Pre-schoolPDP)” mavzudagi amaliy loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 10-yanvardagi №04/11-9-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ilmiy xulosalar asosida ingliz va o‘zbek tilidagi “ta’na-dashnom”ga oid matnlarni tahlil qilish asosida tanbeh berishning tipik usullari, leksik, stilistik va sintaktik omillarning vazifalariga oid materiallar bilan boyitilgan;

tilshunoslikka oid ilmiy-amaliy va chog‘ishtirma tahlillar, fikr mulohazalaridan, jumladan, “ta’na-dashnom semantik maydoni” tushunchasini ifodalovchi vositalar tarkibini aniqlash, ta’na-dashnom semantik maydoni tushunchasini tashkil etuvchi vositalarning lisoniy, tipologik xususiyatlari o‘rganishga oid taklif va xulosalardan “Assalom, O‘zbekiston!” va “Tilga e’tibor” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 15-noyabrdagi №06-28/1796-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ta’na-dashnom konseptining o‘ziga xos

xususiyatlari va ko‘plab keltirilgan fikr-mulohazalar ko‘rsatuv ilmiy saviyasi oshishiga xizmat qilgan;

yozuvchilar asarlaridan olingan iqtiboslar asosida “ta’na-dashnom”ni sukut orqali bilvosita ifodalashning psixologik samarasiga doir ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Xalqaro aloqalar va badiiy tarjima bo‘limida foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2023-yil 16-noyabrdagi №01-03/3080-sonli ma’lumotnomasi). Natijada badiiy tarjima bo‘limini ma’lum darajada ilmiy leksika bilan boyitish bilan bir qatorda, har ikki tilda xilma-xillikning mavjudligiga oid, tarjima borasida nazariy muammolarning yechimi sifatida xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Tadqiqotning asosiy natijalari jami 6 ta, jumladan, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda, 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika hamda 6 tasi xorijdagi ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, ishning hajmi 151 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi, e‘lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

**“Ta’na-dashnom” konseptining lingvokonseptual tavsifi** deb nomlanib, ushbu bobning birinchi paragrafi **“Zamonaviy tilshunoslikda kognitiv yondashuv”** paragrafida konsept tushunchasi tadqiqiga e‘tibor qaratilgan. “Uni tahlil qilmasdan, etnomadaniyatni to‘liq talqin qilish mumkin emas. Chunki har qanday realiyaning madaniy qadriyatlar tizimidagi o‘rni bu realiyaga inson qanday munosabatda ekanligiga qarab aniqlanadi”<sup>13</sup>. Shunday ekan, har bir konsept nafaqat insonning tashqi dunyoda nimadir haqida bilishini, balki u haqidagi fikrlari va his-tuyg‘ularini ham o‘z ichiga oladi.

G.Lakoff o‘zining “Metaphors We live by” kitobida “konsept” tushunchasi haqida shunday yozadi: “Bizning tushunchalarimiz biz nimani idrok etishimizni, dunyoda

---

<sup>13</sup> Кдырбаева Г.К. «Ман» – «адам» концептосфераси бирликларининг лингвомаданий ва лингвокогнитив хусусиятлари (инглиз ва қорақалпоқ тиллари мисолида): Филол. фанл. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – Б 12.

qanday anglashimizni va boshqa odamlar bilan qanday munosabatda bo'lishimizni nazarda tutadi ...”<sup>14</sup>.

Konsept kognitiv tilshunoslik sohasida muhim o‘rin tutadi va o‘zini asosiy element sifatida namoyon qiladi. Kognitiv adabiyot sohasida ushbu tushuncha falsafiy, leksik kategoriya va psixologik g‘oya hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslik va kognitiv semantikada biz bu atamaning o‘zi nimani anglatishiga qiziqamiz. Olimlar konseptga turli xil ta’riflar berishadi.

N.Tixonova konseptga quyidagicha ta’rif beradi: “Konsept grammatik kategoriya bo‘lib, u o‘zining formal ko‘rsatkichlariga va shu kategoriya ichidagi differensial belgilariga egadir”<sup>15</sup>.

M.Nikitinning fikricha: “Konsept sxolastik (*diniy dunyoqarashni nazariy asoslashga intiluvchi diniy falsafa*) strukturaga ega bo‘lgan diskret (*uzlukli*) ko‘p omilli mental birlikdir”<sup>16</sup>.

Konseptning ta’riflari haqida berilgan fikrlarni umumlashtirib quyidagi ta’riflarni keltirish mumkin:

1. Konsept - bir lahzada ongda nimaningdir chaqnashi. 2. Konsept - har bir element abstraksiyaning yuqori darajasiga intiladigan, irearxik tarzda tashkil etilgan tuzilma. 3. Konsept - elementlari bir-biriga bog‘langan va bir-birini harakatga keltiradigan maydon tushunchasi bilan birlashadigan yagona bir butunlik. 4. Konsept - bu ma’lum bir mavzu yoki sohaga tegishli so‘zlar to‘plami. 5. Konsept - bu g‘oyalarni qanday tashkil qilishimiz, tushunishimiz va aqliy tilning birligi bu elementlarning barchasi qanday ishlashini anglatadi.

Sh.S.Safarov o‘zining kognitiv tilshunoslik risolasida keltirgan fikrida quyidagilarni ta’kidlaydi, “moddiy dunyo idroki, ayni paytda, idrok etilayotgan predmet-hodisalar haqida tushuncha tug‘ilishini, keyinchalik, ushbu tushunchaning mental namuna - konsept sifatida shakllanib, moddiy ko‘rinish olishini taqozo etadi”<sup>17</sup>, deya fikr bildiradi. Shunigdek, professor o‘zining kognitiv tilshunoslik risolasida yana quyidagi jumlaning keltirib o‘tadi: “Konsept voqelikning tafakkurdagi in’ikosi – obrazning qayta ishlanishi natijasida hosil bo‘ladi va uning bevosita lisoniy voqelanishi yana bir tafakkur akti ijrosining ta’minlanishini taqozo etadi...”<sup>18</sup>.

Olimlar fikrlardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, konseptualizatsiya jarayonida matnni yaratish uchun asos yaratiladi.

O‘tgan asrning 90-yillarida tilshunoslik ilmida yangi, mustaqil yo‘nalish sifatida keng doirada tan olingan kognitiv lingvistika XXI asrga kelib, faol ravishda olg‘a siljishda davom etmoqda. Tilni va kognitiv jarayonlarni o‘rganishni birlashtirgan mazkur ilmiy paradigma texnologik taraqqiyot va tadqiqotning yangi usullari tufayli ko‘p jihatdan o‘zgartirildi, bu uning ko‘lamining kengayishiga til va kognitiv jarayonlar o‘rtasidagi munosabatni yanada aniq tushunishga olib keldi. Tilshunoslar tomonidan soha “Kognitiv tilshunoslik”<sup>19</sup>, “Cognitive Linguistic Studies”<sup>20</sup>, “Constructions and

<sup>14</sup> George Lakoff and Mark Johnson. *Metaphors We live by*. The University Chicago Press. – Chicago, 1980. – P. 3.

<sup>15</sup> Тихонова Н. Концепт в системе современных лингвистических представлений Семантика языковых единиц; Докл. VI междунар. конф. Т. 1. – М., 1998. – С. 69.

<sup>16</sup> Никитин М. Развёрнутые тезисы о концептах. Вопросы когнитивной лингвистики. – Тамбов, 2004. – С. 53.

<sup>17</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшunoslik. – Жиззах: Сангзор нашриёти, 2006. – Б. 25.

<sup>18</sup> O‘sha manba. – 23 б.

<sup>19</sup> O‘sha manba. – Б. 92.

Frames”<sup>21</sup>, shuningdek, “Human Cognitive Processing”<sup>22</sup>, “Applications of Cognitive Linguistics”<sup>23</sup> kabi yirik davriy va monografik nashrlar bilan rivojlantirildi.

O‘.M.Hoshimov fanga shunday ta’rif beradi: “Kognitiv tilshunoslik – inson tomonidan borliq dunyo voqeligini til orqali anglanishi, o‘rganilishi, ya’ni konseptlar vositasida uning in’ikos etilishi, his va idrok qilinishi kabi inson miyasida kechuvchi murakkab konseptual jarayonlar bilan bog‘liq muhim yo‘nalishdir”<sup>24</sup>.

Bundan tashqari ingliz olimlaridan Ronald Langacker ham kognitiv tilshunoslik sohasida ish olib borgan mashhur olimlardan hisoblanadi. U kognitiv grammatika bo‘yicha o‘zining ilmiy izlanishlari bilan tanilgan. Uning asosiy g‘oyasi “kognitiv semantika”ning asosiy tushunchasi, grammatika va semantikaning bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligi va fundamental kognitiv tamoyillarga asoslangan<sup>25</sup>. Bu g‘oya kognitiv tilshunoslik doirasida grammatika va semantikaning ajralmasligini, ularning kengroq kognitiv jarayonlarga tayanishini ta’kidlaydi va konseptuallashtirish, idrok etish kabi kognitiv jarayonlarni qanday aks ettirishi va shakllantirilishiga urg‘u beradi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning asosiy yo‘nalishlaridan biri - psixologiya, neyrologiya, kompyuter fanlari va hatto sun’iy ong kabi boshqa fanlar bilan chuqur integratsiya tamoyilidir.

Fanlararolik, zamonaviy kognitiv tilshunoslikning asosiy xususiyatiga aylandi, yutuqlar ko‘lamini kengaytirdi, til va kognitiv jarayonlar o‘rtasidagi munosabatni tushunishning yangi usullarini taqdim etdi. Bunday yondashuv ilm-fanning turli sohalaridagi bilim va usullarni chuqurroq tahlil qilish uchun birlashtirish imkonini beradi, bu esa kutilgan, ba’zan kutilmagan natijalarga olib keladi. Kognitiv talqin va tekshirish natijalari o‘rganilayotgan konsept mazmunining modelini taqdim etish imkonini beradi.

Jorj Lakoff tilning fikrlash jarayonlarini qanday aks ettirishi va shakllantirishi haqidagi tushunchamizga katta hissa qo‘shdi. Uning kognitiv tilshunoslik fikrlarining ba’zi asosiy jihatlarini keltirib o‘tamiz: 1. Mujassamlangan bilim; 2. Konseptual metafora nazariyasi; 3. Kognitiv modellar; 4. Lingvistik nisbiylik; 5. Siyosiy va ijtimoiy oqibatlar. Jorj Lakoffning kognitiv tilshunoslikka qo‘shgan hissasi til tafakkurni qanday aks ettirishi va unga ta’sir qilishi haqidagi tushunchamizni chuqurlashtirdi, bilishning mujassamlangan tabiati va metafora, ramka hamda kognitiv modellarning konseptual tizimlarini shakllantirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

Ingliz va o‘zbek tillari hamda madaniyatlaridagi lisoniy hodisalarni tushunish va tahlil qilish uchun muhim vosita bo‘lgan zamonaviy lingvistik tadqiqotlarga umumiy munosabat bildirilgan. Bu tadqiqotlar “ta’na-dashnom” kabi konseptlarning chuqur semantik, sintaktik va madaniy tomonlarini ochib berish hamda ularni turli kontekstlarda tadqiq qilish imkonini beradi. “Ta’na-dashnom” konseptining ingliz va o‘zbek tillaridagi

---

<sup>20</sup> D.U. Ashurova, M.R. Galieva, Cognitive Linguistics. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2018. – В. 107.

<sup>21</sup> <https://benjamins.com/catalog/cf>

<sup>22</sup> <https://benjamins.com/catalog/hcp>

<sup>23</sup> <https://www.degruyter.com/serial/acl-b/html>

<sup>24</sup> Хошимов Г.М. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике //Системструктур тилшунослик муаммолари. – 2010. – Б. 70.

<sup>25</sup> Ronald Langacker, Cognitive grammar. A basic introduction Published by Oxford University Press, Inc. 198 Madison Avenue, – New York, 2008. – 127 p.

lingvokonseptual tavsifi bu tushunchaning har ikki tildagi semantik tuzilishini ochib berishga imkon yaratdi.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi **“Ingliz va o‘zbek tillarida “ta’na-dashnom” konseptining lingvokonseptual tavsifi”** tadqiqiga bag‘ishlangan.

Lingvokonseptual tavsif tilning inson tushunchalarini, xususan, ma’lum bir madaniy yoki lingvistik doirada qanday aks etishi va tuzilishini tahlil qilish hamda tavsiflash jarayonini anglatadi. U lingvistik iboralar va ular ifodalovchi asosiy kognitiv tushunchalar o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishni, tilning fikrni qanday shakllantirishi va tartibga solishiga e’tibor qaratishni o‘z ichiga oladi.

Ta’na-dashnom konsepti ikki madaniyatda ham muhim ahamiyatga ega, lekin uni ifodalashdagi uslublar va kontekstlar farqlanadi. Til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqa ushbu konseptning yetarlicha chuqur va keng qamrovli o‘zaro ta’sirini ko‘rsatib beradi. Tekshirish va tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, tilda so‘zlashuvchilar, ko‘pincha, o‘z – noroziligini: *ta’na-dashnom bermoq, kinoya qilmoq, tanbeh bermoq, ta’zirini bermoq* kabi shaklida ko‘proq ifoda etadilar. *Tanbeh, kinoya* va *ta’na-dashnom* berilganda, so‘zlovchi uning suhbatdoshi noo‘rin harakat qilayotganiga yoki so‘zlovchiga yoqmaydigan noo‘rin harakat qilganiga amin bo‘ladi.

“Ta’na-dashnom” konsepti so‘zlovchining suhbatdoshga nisbatan salbiy munosabatini ifodalashning bir qismi sifatida ko‘rib chiqiladi va u norozilikni bildirish usullaridan biri sifatida qabul qilinadi. Shu bilan birga, so‘zlovchi o‘zining norozilik munosabatini ifodalashning boshqa mumkin bo‘lgan usullari va ular “ta’na-dashnom” konseptidan qanday farq qilishi haqida fikr yuritiladi.

“Koyish” yoki “tanbeh berish” nafaqat til bilan, balki nigoh, imo-ishora, yuz ifodalari yoki hatto sukunat kabi noverbal vositalar orqali ham ifodalanishi mumkin. Ushbu “noaniq” lisoniy va nolisoniy iboralar ta’na-dashnom va norozilikni samarali tarzda yetkazib beradi. Masalan, *o‘qrayib qarash* yoki *boshini chayqash* ham suhbatdoshga nisbatan norozilik yoki umidsizlikni aniq ko‘rsatishi mumkin. Xatto ovoz tonini o‘zgartirish ham so‘zlovchi tinglovchiga o‘z noroziligini ifodalashi mumkinligini ko‘rsatadi. Bunday lisoniy va nolisoniy nutq faoliyati muloqotga ta’sirchanlik hamda ohang qo‘shadi. Misol uchun:

1. *Keksa bog‘bonning samimiy so‘zlari ham ta’na, ham tanbeh edi*<sup>26</sup>. Bu gapda ta’na va tanbeh ochiqchasiga ifodalangan. Bog‘bonning so‘zlari samimiy bo‘lsa-da, ularda tanbeh, ya’ni o‘rgatish yoki tanqid qilish ohangi mavjud bo‘lib, ayni paytda norozi va malomatli fikrlar ifodalanmoqda. Shuning uchun, bu gap ta’na va dashnomga mos keladi

2. *Sarob qovoq-tumshug‘ini osib uning ortidan ergashdi. Yarim soatcha gaplashdilar*<sup>27</sup>. Ushbu misolda, “Sarob qovoq-tumshug‘ini osib” iborasi orqali personajning his-tuyg‘ulari va holati aniq ifodalanmoqda. “Tumshug‘ini osib” deganda, bu shaxsning g‘amginligini, qayg‘usini yoki umidsizligini tasvirlaydi. Bu ko‘rinish, so‘zlar bilan ifodalashdan ko‘ra ko‘proq atrof-muhitni va hissiyotlarni ochib beradi.

So‘zlovchining o‘zi bajargan xatti-harakatni tasvirlash uchun “Tanbeh bermoq” yoki “ta’na-dashnom bermoq” leksemalari birinchi shaxs birlik hozirgi zamonda

<sup>26</sup> <https://uz.wiktionary.org/wiki/ta%CA%BCna>

<sup>27</sup> Аҳмад Лутфи Қозончи. Қайнона (роман). Таржимон: Ёўлдош Эшбек. – Тошкент, 2004. – В. 76.

qo'llanilmaydi. Buning sababi shundaki, ushbu leksemalardan bunday foydalanish so'zlovchining noto'g'ri harakati uchun nomaqbul hisoblanadi<sup>28</sup>.

Inglizlarda tanbehni evfemizm yoki kamaytiruvchi so'zlar yordamida yumshatish mumkin. Masalan, to'g'ridan-to'g'ri *"You are wrong"*<sup>29</sup> Siz nohaqsiz deyish o'miga, *"I'm not sure that I'm see that it like it"*<sup>30</sup> Men buni yoqtirganimga ishonchim komil emas. (Muallif tarjimasini) dan foydalanish mumkin.

Har bir madaniyatning o'ziga xos me'yorlari, urf-odatlar va bilvosita tanbeh berish uchun misollar mavjud. Bu ma'lum bir madaniyat, odat yoki muloqot uslubidagi madaniyatning umumiy darajasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ushbu bobning uchinchi paragrafi **"Ta'na-dashnom"ni bilvosita ifodalashning milliy va madaniy o'ziga xosligi** tadqiqiga bag'ishlangan. "Ta'na-dashnom" konseptining qonuniyligi va adolatligi uchun asoslar rasmiy qonunlar hamda qoidalar emas, balki muayyan etnik jamiyatning axloqiy, shuningdek, ma'naviy me'yorlaridan olinadi. Paragraf, lingvistik jihatlarni tahlil qilish va ularning axloqiy-etik ongga ta'siriga qaratilgan bo'lib, baholash mazmuni va madaniyatni diversifikatsiya qilish masalalarini ochib beradi.

Ingliz tilida so'zlashuvchilarning konseptual dunyosida bilvosita baholash yashirin emotsionallik bilan bog'liq bo'lib, bu ifodaning mazmunida ichki keskinlikni keltirib chiqaradi, lekin tinglovchiga ingliz tilida xushmuomalalik va aniq yo'nalishda namoyon bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor normalari bilan bilvosita bog'lanadi.

Sh.S.Safarov "Nutqiy birliklarning evolyutiv, ya'ni baholash vazifasini keng ma'noda tushunish lozim. Zero, tafakkur faoliyati qiymatlarga tayanadi va baho mezoni bo'lgan qiymat tabiiy hamda madaniy asosga ega bo'lishdan tashqari, etik, estetik hamda lisoniy xususiyatga ega bo'lishi ham mumkin"<sup>31</sup> degan ta'rifni berib o'tadi. Ushbu tahlil sohadagi tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Shuni ta'kidlash kerakki, ta'na-dashnom har doim axloqiy va etik jihatdan salbiy baho bilan birga keladi, bu tanqid qilingan shaxsning o'ziga xos xatosi bilan bog'liq.

G.P.Gris tomonidan kiritilgan hamkorlikning universal prinsipi, shuningdek, ma'lum bir milliy lingvomadaniy jamoaning kommunikativ normalari va qoidalari qoralangan vaziyatda salbiy axloqiy-etik baholarni ifodalash xususiyatlarini belgilaydi. Shunisi qiziqarliki, bu kontekstda bunday baholashlar, ko'pincha, bilvosita nisbiy xarakterga ega bo'lib, ular past kategoriklik va ko'proq yashirin emotsionallik bilan birga keladi<sup>32</sup>.

Yuqoridagi nazariyalarga tayanib, B.O'rinboyev va A.Musayevlarning fikrlarini keltirib o'tamiz: "Uslubning xususiy hollari sifatida sifatlash, o'xshatish, istiora, kinoya, majoz, jonlantirish, so'rash, mubolag'a, undash, qarshilik qaytish, kesish kabi unsurlar

<sup>28</sup> Падучева Е.В. Зализняк Анна А. Семантические явления в высказываниях от лица Finitis duodecim lustris: Сб. статей к 60-летию Ю.М.Лотмана. – М., 1982. – С. 141-149.

<sup>29</sup> <https://dictionary.cambridge.org/us/thesaurus/articles/to-say-that-you-are-wrong>

<sup>30</sup> <https://dictionary.cambridge.org/us/spellcheck/thesaurus?q=I%E2%80%99m+not+sure+that+I%E2%80%99m+see+that+it+like+it>

<sup>31</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008. – Б. 208.

<sup>32</sup> Грайс Г.П. Логика и речевое общение. Новое в зарубежной лингвистике. Лингвистическая прагматика 1985. – С. 217-237.

tahliliga kirishibgina qolmay, ularga zamonaviy adabiyotdan misollar beradi va ularni mumtoz adabiyotdan olingan misollar bilan qiyoslab, munosib bahosini beradi”<sup>33</sup>.

Tilshunoslik fani shuni ta’kidlaydiki, til turli funksiyalarni bajaradi va ulardan biri emotsiya, his-tuyg’ularni ifodalash hisoblanadi. Bu funksiya tilning aloqa, bilish va metalingvistik kabi boshqa asosiy funksiyalari bilan birgalikda ko’rib chiqiladi. Tilning emotsional vazifasi: odamlar o’z his-tuyg’ularini ifodalash uchun tildan qanday foydalanishini ko’rsatib berishidir.

Ingliz madaniyati va tilida his-tuyg’ularni ifodalashda ko’pincha, vazminlik, ustunlik qiladi. Bu shuni anglatadiki, odamlar, odatda, his-tuyg’ularini juda kuchli yoki ochiq ko’rsatmaslikka harakat qilishadi. Ko’pincha, xotirjam va oqilona muloqot qadrlanadi. Ingliz tilidagi muloqotda cheklanish, odatda, suhbatdosh bilan yaxshi munosabatlarni saqlashga yordam beradi. Jahl va norozilikni to’g’ridan-to’g’ri va kuchli ifoda etish o’rniga, ko’proq diplomatik usullarni afzal ko’rishadi.

Tanbeh yoki “ta’na-dashnom”ga qanday munosabatda bo’lish o’zbek xalqining madaniy xususiyatlariga ham bog’liq. Ta’na-dashnomga javob berishda o’zbek madaniyatiga xos bo’lishi mumkin bo’lgan bir nechta umumiy xususiyatlar mavjud:

- o’zbek madaniyatida bag’rikenglik va boshqalarning fikrini hurmat qilishni ta’kidlash mumkin. Ta’na-dashnomga javoban o’zbeklar xotirjamlikni saqlashga va mojarolardan qochishga harakat qilishadi;

- kattalar hurmatiga e’tibor beriladi. Ta’na-dashnomga javob berish tanqid qiluvchi tomonga hurmat ko’rsatishni o’z ichiga olishi mumkin, garchi u kelishuv bo’lmasa ham;

- o’zbek madaniyatining muhim elementlari diplomatik muloqot qilish va qiyin vaziyatlarda murosa topish qobiliyatidir;

- o’zbeklar hayotida oila va mahalla muhim o’rin tutadi. Ular ta’na-dashnomga yoki tanqidga duch kelganda yordam va maslahat uchun yaqinlariga murojaat qilishlari mumkin;

- o’zbeklar “ta’na-dashnom”ga javoban o’z qadr-qimmatini saqlab qolishga va kamsituvchi so’zlardan yoki namoyishkorona g’azabdan qochishga harakat qilishlari mumkin.

Ammo shuni ta’kidlash joizki, yurtimizda ham boshqa madaniy guruhdagi kabi odamlarning haqoratga nisbatan individual munosabati, umumiy madaniy xususiyatlar turli odamlarda turlicha namoyon bo’lishi mumkin. Ta’na-dashnom qilish uchun hissiy reaksiyalar ko’plab omillarga, jumladan, shaxsning xarakteriga, shaxsiy tajribasiga va muayyan vaziyatning sharoitlariga bog’liq bo’ladi.

Ingliz va o’zbek tilida madaniy kontekstlardan misollarni tahlil qilib, tadqiqotning ushbu qismida ijtimoiy uyg’unlik va yuzni saqlab, norozilikni yetkazish uchun bilvosita strategiyalarni qo’llashning usullari ochib berildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Ingliz va o’zbek tillarida ta’na-dashnom konseptini ifodalashning stilistik, sintaktik va emotsional omillari**” deb nomlangan. Ushbu bobning birinchi paragrafi “**Nutqiy aktda norozilikni ifodalashning stilistik-pragmatik omillar**” deya nomlangan bo’lib, nutq jarayonida norozilikni ifodalashning til va uslubiy jihatlarini chuqur tahlil qilishga bag’ishlangan.

---

<sup>33</sup> O’rinboev B., Musayev A. Umumiy tilshunoslik (o’quv qo’llanma) Toshkent: Oltin kitob, 2022. – B. 110.

Insonlar o'rtasidagi muloqotning o'ziga xos xususiyatlarini faqat bayonotlar darajasida o'rganish so'zlovchining kommunikativ niyatini lisoniy ifodalashning nozik mexanizmlariga kirib borishga imkon bermaydi, bu, ko'pincha, o'zaro bog'liq bir qator nutqiy harakatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, suhbatdoshni biron - bir qoidabuzarlik uchun tanqid qilganda, so'zlovchi nafaqat tanqid qilishning muayyan usulini qo'llaydi, balki kerak bo'lganda, hissiy jihatdan sozlash, tushunishni nazorat qilish, o'zini namoyon qilish, suhbatdoshning obro'sini saqlash va hokazo usullarga murojaat qiladi. E'tibor bering, bitta usul bir nechta bayonotlarni o'z ichiga olishi mumkin, chunki avvaldan nazarda tutilmagan va o'z-o'zidan sodir bo'ladigan nutq jarayonida so'zlovchi o'z nutqiy aktini perlokatsion ta'sirlarni hisobga olgan holda sozlashi va shu bilan nutqning samarali yoki samarasiz yo'nalishini nazorat qilish imkoniyatiga ega.

S.Sultonsaidova va O'.Sharipovaning fikricha "So'zlashuv uslub - nutqning dialogik shaklidir. Bu uslub yozma nutqqa qaraganda ta'sirchanligi, hissiyotga boyligi, yangi so'z qo'llashlar mavjudligi bilan ajralib turadi. Bu uslubda so'zlovchining barcha imkoniyatlari namoyon bo'ladi. U nutqiga hissiyotini ham qo'shib gapiradi. Bunda turli imo-ishora va qo'l harakatlaridan foydalaniladi. Bu vositalar nutqda aytilmay qolishi mumkin bo'lgan so'z va iboralarning o'rnini to'ldiradi va bayon qilinayotgan fikrni yanada aniqlashtiradi"<sup>34</sup>. Nazariyalarda keltirilishicha, aynan muloqotda ta'na-dashnom konseptini tushunish bir - muncha qiyinchiliklarga olib kelishini kuzatishimiz mumkin.

Ta'na-dashnom so'zlovchini bezovta qilishi mumkin va bu suhbatdosh o'zini tutish normalarini yoki muloqot qoidalarini buzgan deb hisoblaganda sodir bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, hissiy tarkibiy qism mavjud bo'lsa-da, tanbeh aloqa strategiyasi sifatida ochiq to'qnashuvga emas, balki hamkorlik va murosaga qaratilgan bo'ladi. Bu g'azabni ifodalash va suhbatdoshning xatti-harakatlarini baholashning bilvosita shakllari orqali amalga oshiriladi. Norozilik yoki ta'na-dashnom ifodasi nutqning turli shakllarida turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Norozilikni ifodalash uchun ishlatiladigan pragmatik strategiyalar kontekst va madaniyatga qarab, shuningdek, stilistik omillarda keskinligi yoki ijobiyliги bilan farqlanadi.

Leksik uslubda "Ta'na-dashnom" oddiy va to'g'ridan-to'g'ri bayon qilinishi mumkin. Masalan: "*The manufacturers received thousands of complaints from dissatisfied customers*"<sup>35</sup>. (Ishlab chiqaruvchilar norozi mijozlardan minglab shikoyatlarni qabul qilishdi). (Muallif tarjiması) Leksik jihatdan, bu jumlada muayyan so'zlar ishbilarmonlik va tijorat sohasidagi muammolarni aks ettiradi. "Manufacturers" va "customers" so'zlari sanoat va iste'molchi o'rtasidagi aloqani ko'rsatadi, "complaints" esa muammoli vaziyatni vujudga keltiradi. "Dissatisfied" so'zi esa mijozlar hissiyotining salbiy jihatini ta'riflaydi va bu holat korxonaning muvaffaqiyatiga ta'sir etishi mumkin.

Emotsional uslubda "*He was disappointed to find they'd already left*"<sup>36</sup>. (Ularning allaqachon ketganini bilib hafsalasi pir bo'ldi.). (Muallif tarjiması) Bu misolda "Disappointed" so'zi o'zida kuchli bir hissiyot - umidsizlik yoki hafsalasizlikni o'z ichiga oladi. Bu so'zning qo'llanilishi, qahramonning kutilmagan natijaga duch kelishi

<sup>34</sup> Sultonsaidova.S, Sharipova.O'. O'zbek tili stilistikasi: – T.: Yurist-media markazi, 2009. – C. 12.

<sup>35</sup> <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/dissatisfied>

<sup>36</sup> <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/disappointed>

bilan bog‘liqdir va uning ichki olamidagi keskin o‘zgarishni aks ettiradi. Ta’na-dashnom va tanbeh berishda xushmuomalalik tamoyilining ishlashi suhbatdoshning manfaatlarini hisobga olgan holda ifodalanadi.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi **“Norozilik aktining ekspressivligini oshirishda sintaktik vositalarning o‘rni”** tadqiqiga bag‘ishlangan. Ta’na-dashnom va tanbeh konseptining ekspressivligi oshishi, asosan, sintaksis darajasida sodir bo‘ladi. Ekspressivlikni oshirishning asosiy usullari sintaktik tuzilmalarning transpozitsiyasini, parallel tuzilmalar va takrorlashlardan foydalanishni, elliptik bayonotlar hamda aposiopez orqali sintaktik siqishni, ritorik so‘roq va konvergensiya hodisasini o‘z ichiga oladi.

Tanbeh aktini lingvistik amalga oshirishda aposiopez (*tugallanmagan fikr yoki noto‘g‘ri jazo uchun ritorik atamadir*) hodisasi juda keng tarqalgan - so‘zlovchining hissiy stress va davom eta olmasligi tufayli yuzaga keladigan hissiy ta’naffus hisoblanadi.

Aniq ta’na-dashnom va tanbehlar baholash predmetini (ya’ni tinglovchini) belgilash va hissiyot, munosabat (*I hate, I don’t like* va hokazo) hissiy va baholovchi fe’llardan foydalanish orqali ifodalanishi mumkin. Qo‘shimchada ta’na-dashnom va tanbehga sabab bo‘lgan harakat haqida ma’lumotlar mavjud.

*“I hate it when you lie to me, she said simply”*<sup>37</sup>. *“I don’t like your disappearing”*<sup>38</sup>. Menga yolg‘on gapirganingizdan nafratlanaman, dedi u shunchaki. Men sizning g‘oyib bo‘lishingizni yoqtirmayman. (Muallif tarjimasi)

Bunday tuzilma bir qator shartlar bajarilgan taqdirda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tanbehning ifodasi sifatida ishlatilishi mumkin: predikat funksiyasida norozilikni ifodalovchi leksema paydo bo‘ladi, tinglovchi aybdor tomon sifatida ko‘rsatiladi, tinglovchi harakati salbiy ma’noga ega leksema bilan tavsiflanadi.

Quyida ta’na-dashnom konseptiga o‘zbek badiiy adabiyotidan olingan misol tahlil qilamiz.

*“Men nimaga iqror bo‘lishga hayron edim, yig‘lar edim. Eng oxiri hammalari charchadilar. Hoji bobo o‘z o‘rniga o‘tirib menga qaradi: – Hoy, padarla‘nat, muloyim shupurgi. “Yetim qo‘zi asrasang, og‘zi-burning moy etar, yetim o‘g‘lon asrasang, og‘zi burning qon etar”, deganlar. Sen haromi kelgandan buyon do‘kon-dastgohimdan baraka ko‘tarilib, takyada biror kun tinchim qolmadi. Agar shu qutichani biror yerga yashirgan bo‘lsang, hali ham yaxshilikcha o‘rniga qaytar, bilib-bilmaslikka solib keta qolaylik. Illo, bola, bo‘rkingda bilib qo‘y, qoziga chaqirtirib, teringga somon tiqtiraman”*.<sup>39</sup>

Sintaktik vositalar matnning ifoda qilish usuliga, hissiyotlarning kuchayishiga va mohirona tasvirga yordam beradi. Misolda murakkab va ko‘p qatlamli jumlar ishlatilishi hikoyaning dramatik tusini oshiradi. Masalan, *“Agar shu qutichani biror yerga yashirgan bo‘lsang...”* jumlasidagi shartli tuzilma muallifning norozilik hissini kuchaytiradi, chunki bu o‘z-o‘zidan so‘rov elementini yaratadi.

Takrorlash: *“Sen haromi kelgandan buyon do‘kon-dastgohimdan baraka ko‘tarilib...”* jumlasida ma’lum bir fikrni takrorlash orqali muallifning noroziligi yanada

<sup>37</sup> King, Stephen. *The Dark Half*. A Signet Book, – New York, 1989. – P. 128.

<sup>38</sup> Jackie Collins, *“Lucky”*. Publisher: Simon and Schuster; First Edition. – New York, 1985. – P. 400.

<sup>39</sup> G‘afur G‘ulom *Shum Bola Qissa*.– Toshkent:Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B. 150.

oydinlashtirilmoqda. Bu ifoda qahramonning his-tuyg‘ularini kuchaytiradi, o‘quvchini his qilishga undaydi.

So‘z birikmalari: *“Hoy, padarla’nat, muloyim shupurgi.”* iborasida ifodalangan so‘zlar qahramonning ichki kechinmalarini va noroziligini kuchli ochib beradi. Bu turdagi nutq to‘g‘ridan-to‘g‘ri va hissiy javobni keltirib chiqaradi.

Metafora va xalq maqollari: *“Yetim qo‘zi asrasang, og‘zi-burning moy etar...”* kabi iboralar ijtimoiy yoki madaniy kontekstni qo‘shib, norozilikning sabablarini tushuntiradi. Bunday ritorik vositalar tinglovchilarga qulay shaklda yetkaziladi.

Yuqoridagi misolda sintaktik vositalar muallifning norozilik hissini kuchaytirishga va o‘quvchining his-tuyg‘ularini ochishga qaratilgan tasirchan vositalar sifatida xizmat qiladi. Bu esa matnning emosional yukini oshiradi va norozilikning chuqurligini aks ettiradi.

Ushbu bobning uchinchi paragrafi **“Ta’na-dashnom” konseptining tinglovchiga emotsional-psixologik ta’siri va uning tanbehga munosabati** tadqiqiga bag‘ishlangan. Ta’na-dashnomning emotsional ta’siri tanqid qiluvchining vaziyatni qanday boshdan kechirishiga bog‘liq. G‘azab bilan ifodalangan ta’na-dashnom keskin tanqid bo‘lishi va agressiv so‘zlardan iborat bo‘lishi mumkin. Norozilik, hafagarchilik, rahm-shafqat kabi emotsional holatlar muloqotning har ikki tomon ishtirokchilarida ro‘y beradi. Tanbehning emotsional mazmuni kontekstga va muloqot qiluvchilar o‘rtasidagi munosabatlarga qarab o‘zgarishi mumkin va u haqorat qanday qabul qilinishi va tinglovchiga ta’sir qilishida muhim rol o‘ynaydi.

Xususan, ta’na-dashnom, ayniqsa, tajovuzkorlik bilan yetkazilganda, g‘azab tuyg‘ularini uyg‘otishi mumkin. Undan kelib chiqadigan his-tuyg‘ular shiddatli bo‘lishi va haqoratning o‘ziga xos xususiyatlariga, tinglovchining psixologik xususiyatlariga qarab farq qilishi mumkin. Tinglovchi o‘zida yoki vaziyatda achchiqlik yoki umidsizlikni his qiladi. Ta’na-dashnom g‘azab va o‘zini himoya qilish yoki o‘z harakatlarini oqlash istagini, qayg‘u va yo‘qotish hissini keltirib chiqaradi. O‘zbek mentalitetidan kelib chiqib misol keltiradigan bo‘lsak, bizda ayollar ta’sirchan bo‘lganlari uchun, ko‘pincha, hissiyotga berilib, keyin o‘z g‘azabini jilovlay olmaydilar. Abdulla Qodiriyning *“O‘tgan kunlar”* romanidagi O‘zbek oyim ham o‘jarlik bilan o‘z hissiyotlarini jilovlay olmay, qiziqqonlik ustida o‘g‘lini ikkinchi bor uylantirib qo‘yib, fojeadan so‘ng afsus chekadi:

*“Bu xabarni Hasanalidan eshitkan kunlari ul bu ishka chidab turolmadi: Endi menga mundog‘ o‘g‘ul kerak emas... Oq sutimni oqqa, ko‘k sutimni ko‘kka sog‘dim... Endi Toshkandga kelmasin ul o‘zboshimcha betiyuq! deb baqirib - chaqirib, yig‘lab - sixtab, dard-u hasratni boshig‘a kiyib oldi. Oradan o‘n besh kun o‘tar-o‘tmas Marg‘ilondan Otabek keldi. Uch oylab ko‘rmagan o‘g‘lini quchog‘ig‘a olib ko‘rishmak o‘rniga undan yuzini o‘gurib, san kimsan, keldingmi, deb so‘ramadi va salomiga alik ham olmadi. Go‘yo uxlamog‘chi bo‘lg‘an tovuqdek hurpayib oldi”*<sup>40</sup>.

Asosiy qahramonning hissiy holati o‘g‘li haqida eshitgan xabardan dard-u hasratni boshidan kechirishidan kuchli ta’sirlanadi. *“Endi menga mundog‘ o‘g‘ul kerak emas...”* degan ifoda uning ichki iztiroblarini va umidsizlik hissini aks ettiradi. Bu so‘zlar tinglovchida empatiya hislarini tug‘diradi. Bundan tashqari, Otabekning kelishi va onasi

<sup>40</sup> Қодирий А. Ўткан кунлар. – Т.: Шарқ, 2014. – Б. 46.

bilan muloqoti uning emotsional holatini yanada kuchaytiradi, radikal munosabatlari esa o‘zaro aloqalarni murakkablashtiradi. Salom bermasligi va uchrashuvni rad qilishi orqali ichki ziddiyatlarini ko‘rsatadi.

Ingliz madaniyatida shaxsiy chegaralarga ham urg‘u beriladi va odamlar tanbeh berilganda juda qattiq yoki samimiy savollar berishdan qochishadi. Ushbu madaniy farqlar ta’na-dashnom qanday qabul qilinishiga va unga qanday munosabatda bo‘lishiga ta’sir qilishi mumkin. Ingliz tilida muloqotda norozilik va ta’na-dashnomga javoblarning bir qator tipik ifodalari mavjud. Ular haqorat qanday his-tuyg‘ularni uyg‘otganiga va muloqotdoshlar o‘rtasida qanday munosabatlar mavjudligiga qarab farq qiladi.

*“Ta’na: I can’t believe you did that! Javob: I’m sorry, I didn’t realize it would upset you. Ta’na: You really messed up this time. Javob: You’re right; I made a mistake. Ta’na: This is unacceptable. Javob: I didn’t mean for this to happen. Ta’na: I’m relying on your help - please don’t let me down. Javob: I’ll try to do better next time. Ta’na: When the magician didn’t turn up for his birthday party, Dan was terribly disappointed. Javob: Can we talk about this calmly?”<sup>41</sup>.*

Taqdim etilgan holatlardan ko‘rinib turibdiki, ingliz tilidagi muloqot, ko‘pincha, ingliz madaniyatidagi hissiyotlarni ifodalashda moderatsiyani qadrlash kabi madaniy xususiyatlarni namoyish etadi. Hatto tanbeh berilsa ham, odamlar juda ko‘p g‘azab yoki norozilik bildirmaslikka harakat qilishadi. Ingliz tilida muloqot, ko‘pincha, tanqidni yumshatish va tanqidni yanada samimiy qilish uchun “yumshoq” so‘z va iboralardan foydalanadi. Misol uchun, *“I’m a bit disappointed o‘rniga I’m very disappointed”<sup>42</sup>.*

**“Ingliz va o‘zbek tillarida “ta’na-dashnom” konspetini ifodalashning ekspressiv vositalari”** nomli uchinchi bobning birinchi paragrafi **Kommunikativ maqsadni amalga oshirishda sintaktik vositalar** masalasi tadqiq etilgan. Lingvistik ekspressiv vositalar aloqani kuchaytiradi, uni hissiy ranglar bilan to‘ldiradi va suhbatdoshga ta’sirini kuchaytiradi. Ular turli xil lisoniy va nolisoniy vositalarni o‘z ichiga oladi hamda ularning har biri chuqur va samarali muloqotni ta’minlashga xizmat qiladi. Ekspressiv ifoda vositalari “ta’na-tashnom”ni ifodalashda ham keng qo‘llaniladi, turli tizimli tillarda o‘ziga xos madaniy xususiyatlar va til me’yorlarini aks ettiradi. Shuningdek, o‘zaro farqlarga qaramay, barcha tillarda qo‘shimcha hissiy ohang va harakatlar bilan “ta’na-tashnom”ni yetkazish usullarini topish mumkin.

*Ta’na-dashnom* atamasi o‘zbek tilida - keskin tanqid, kuchli malomat, tanbeh yoki koyish ma’nosini anglatadi. Bu ikki so‘zning birlashmasidan tashkil topgan bir tushuncha bo‘lib, odatda, kimningdir qarorlari yoki xatti-harakatlari ma’qullanmaganda, norozilik bildirish yoki ularni qattiq qoralash maqsadida ishlatiladi. “Ta’na-tashnom” maqsadida, asosan, qat’iy ko‘rsatma yoki undov, buyruqni ifodalovchi vositalardan foydalaniladi. Masalan, *“Siz yo‘lni kesib o‘tmasligingiz kerak”* degan ibora ko‘rsatma ma’nosiga ega (bu xavfli), yoki ma’lum sharoitlarda norozilikni baholaydi (bu juda yomon).

Undov, buyruq nutq aktlari so‘rov, buyruq, maslahat va boshqalar bo‘lishi mumkin. Bunday xatti-harakatlar, odatda, boshqa shaxsni ma’lum bir tartibda harakat qilishga majburlash uchun vakolat yoki kuchga ega bo‘lgan kishi tomonidan qo‘llaniladi. Bu shuni anglatadiki, so‘ragan yoki buyruq bergan odam boshqa odamning xatti-

<sup>41</sup> <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/disappointed>

<sup>42</sup> O‘sha asarda.

harakatlarini o'zgartirishni xohlaydi, ayniqsa, bu xatti-harakatlar yomon yoki istalmagan narsaga olib kelishi mumkin bo'lsa. Sintaktik vositalar ingliz va o'zbek tillarida "ta'na-dashnom"ni ifodalashda muhim rol o'ynaydi va kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Har bir tilning o'ziga xos sintaktik qoidalari va uslublari bor, shuning uchun ularni o'rganish va samarali ishlatish juda muhimdir.

Ingliz va o'zbek tilidagi *yana-again, doim-always, ko'p marta – many times, ming marta, yuz marta* kabi ravishlar harakatning takrorlanuvchanligini ta'kidlaydi. Nutqiy vaziyatda ular, jumladan ta'na-dashnom kontekstida, tinglovchining bir xil xatolarni yoki harakatlarni qayta-qayta sodir etganligiga urg'u beradi. Ular so'zlovchining noroziligini yoki xavotirini kuchaytiradi, chunki bu takrorlanuvchan harakatlar muammo yoki noqulay vaziyatlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi:

*O'zbek tilida: Siz yana kech qoldingiz (yana ravishi kechikishning takroriy holatini ta'kidlaydi).*

*Ingliz tilida: "You are late again"<sup>43</sup> (the adverb "again" emphasizes the repeated state of being late).*

Bu ravishlar so'zlovchining o'z tanbehini aniq va samarali yetkazishini ta'minlaydi, ular tinglovchiga muayyan harakatlar yoki xulq-atvor o'zgartirilishi kerakligini ta'kidlaydi. Aloqa, ma'lumot, g'oyalar va his-tuyg'ularni almashishni o'z ichiga olgan murakkab jarayon sifatida, asosan, mo'ljallangan ma'nolarni samarali yetkazish uchun til tuzilmalariga bog'liq. So'z tartibi, jumlar tuzilishi va grammatik tuzilmalar kabi sintaktik mexanizmlarni har tomonlama tahlil qilish orqali ushbu tadqiqot so'zlovchilar va yozuvchilar ushbu vositalardan aniq kommunikativ maqsadlarga erishish uchun qanday strategik foydalanishlarini aniqlaydi.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi **"Ta'na-dashnom" nutqiy vaziyatini samarali tashkil etishda konnotativ vositalarning o'rni** tadqiqiga bag'ishlangan. "Ta'na-dashnom" nutqiy vaziyatining samarali bo'lishiga konnotativ so'zlar orqali ham erishish mumkin. Baho beruvchi so'zlar ostida, baholash semasi denotativ ma'noni o'z ichiga olgan, salbiy baho beruvchi semantikaga ega leksika, *josus - spy, ehtiyotsizlik - reckless, kechirib bo'lmaydigan - inexcusable, yashirincha - by stealth, ahmoq - a fool* va h.k. tushuniladi. Ingliz tilida konnotativ ma'no kasb etuvchi, ya'ni figurativ ma'noda ishlatilganda, xarakterlovchi vazifani bajaruvchi so'zlar, jumladan, *like a pair of stuffed owls* qorni to'ygan ikki boyqush kabi), *silly goose* (ahmoq g'oz) kabi iboralar nutqiy vaziyat rivojini ta'minlaydi. Ushbu so'zlar tanbehning illokutiv kuchini ko'rsatuvchi belgilar hisoblanadi, chunki pragmatik omillar ta'sirida ular ko'chma ma'noda talqin qilinadi<sup>44</sup>.

*"So you were spying on Ann that day in the Priory? You idiots! You haven't left any gaps - didn't you notice any longer pauses between letters? What are you sitting there in the dark for, like a pair of stuffed owls?"<sup>45</sup>*

"Demak, siz o'sha kuni Annga Prioritda josuslik qilganmisiz? Siz ahmoqlar! Siz bo'sh joy qoldirmadingiz-endi xatlar orasidagi pauzalarni sezmadigingizmi? U yerda qorong'ida bir juft boyqush kabi nima uchun o'tirdingiz?" (Muallif tarjimas) Ushbu misolda "Ta'na-dashnom" nutqiy vaziyatining tashkil etilishi uchun konnotativ

<sup>43</sup> <https://context.reverso.net/translation/english-russian/You%27re+late+again>

<sup>44</sup> Давыдова, Т. А. Речевой акт упрека в английском языке Дис. канд. филол. наук: РГБ, – М., 2003. – С. 115.

<sup>45</sup> O'sha asar. – B. 12.

vositalarning o'zni juda muhimdir. Konnotativ vositalar, ya'ni so'zlarning qo'shimcha ma'nolari va hissiyotlar, muloqotda xarakterlarni, ularning his-tuyg'ularini va vaziyatni yanada chuqurroq aks ettirishga xizmat qiladi.

Kinoyali nutq muloqotning o'ta samarali va ko'p qirrali usuli hisoblanadi. U orqali gapirayotgan shaxs o'z fikrlarini to'g'ridan to'g'ri emas, balki ramziy va ko'p ma'noli tarzda ifoda etadi. Kinoya, ayniqsa, tanqidiy fikrlarni bildirishda keng qo'llaniladi, chunki u to'g'ridan to'g'ri tanqiddan ko'ra, kamroq to'qnashuvli va ko'pincha, zehniy chaqiriqni o'z ichiga oladi. Masalan, "*Siz har doimgidek vaqtingizni juda behuda o'tkazyapsiz*"<sup>46</sup>, deyilganda, agar bu gap kimdir muhim ishlar o'rniga vaqtini behuda ishlar bilan o'tkazayotganda aytilsa, bu ibora kinoya bo'lib, gapirayotgan shaxsning noroziligini ifoda etadi. *Sizdan o'rnak olishi kerak ekan* gapida tartibsizlik holatida aytilgan bo'lsa, demak, bu kinoyali tanqidni bildiradi. Kinoya yordamida so'zlayotgan shaxs o'zining tanqidiy munosabatini bilvosita tarzda bildiradi masalan; juda "*aqlli*" ekansiz jumlasida "*aqlli*" so'zi kinoya orqali ishlatiladi.

Shunday qilib, kinoya, metafora kabi konnotativ ma'noli so'zlar *ta'na-dashnom* nutqiy vaziyatining samarali ta'sirini taminlashda muhim vazifani bajaradi.

"*What the devil do you mean?*"<sup>47</sup> Nima demoqchisan, iblis? (Muallif tarjimasini) gapida *iblis* tinglovchining nutqidan yoki qilgan ishidan juda norozi bo'lish, g'azabni kuchaytirish uchun ishlatiladi. Bu ibora so'zlovchining tinglovchiga nisbatan juda jahli chiqqanligini yoki aytgan gapining ma'nosini tushunmaganligini ko'rsatadi.

O'zbek tilida ham *Nega bunday qilding?*, *Hech o'ylab ko'rdingmi?*, *Qanday qilib bunga yo'l qo'yding?* *Qachongacha bunday davom etadi?* kabi savollar norozilikni ifoda etadi.

Ta'na-dashnom, norozilik yoki tanqidni ifoda etishga qaratilgan kommunikativ harakatlar sifatida, ma'noni yetkazish va kerakli kommunikativ natijalarga erishish uchun lingvistik tushunchalarni diqqat bilan ko'rib chiqishni talab qiladi. Tilshunoslik, pragmatika va sotsiolingvistikaga asoslangan fanlararo prizma orqali ushbu tadqiqot ohang, madaniy aloqalar va og'zaki bo'lmagan signallar kabi konnotativ elementlarning ta'na-dashnom nutqiy holatini shakllantirish uchun strategik tarzda qanday ishlatilishini o'rganadi. Turli lingvistik va madaniy kontekstlardan olingan misollarni tahlil qilib, ushbu tadqiqotda konnotativ ma'nolar tanqid nutqining samaradorligi, maqsadga muvofiqligi va ta'siriga hissa qo'shishning murakkab usullari aniqlandi.

Ushbu bobning uchinchi paragrafi "**Ta'na-dashnom**" konseptini ifodalashga **paralingvistik vositalarning ta'siri**" tadqiqiga bag'ishlangan. Insoniyat semantik ma'nolarni yetkazishga xizmat qiladigan turli belgilar bilan o'ralgan holda yashaydi. Ular orasida davlat ramzlari, harbiy farqlarni belgilash usullari, kiyim-kechak qoidalari, raqamlar, notalar, yo'l belgilari, texnik vositalar signallari, sport jamoalari va boshqa tashkilotlarning gerblari, shuningdek, multimedia formatidagi aloqa vositalari kiradi. Bu xilma-xillik orasida nolisoniy, yani paralingvistik vositalar alohida o'rin tutadi. Ular og'zaki nutqni to'ldiradi, uni mantiqiy, hissiy va estetik ma'lumotlar bilan boyitadi,

<sup>46</sup> <https://ussur-ds106.ru/uz/prilagatelnye-dlya-papy-na-den-rozhdeniya-laskovye-slova-dlya/>

<sup>47</sup> Du Maurier, D. Rebecca. – Foreign Languages Publishing House, – Moscow, 1956. – P. 90.

shuningdek, suhbatdoshning madaniy, psixologik va boshqa xususiyatlari haqida ma'lumot beradi.<sup>48</sup>

Paralingvistika, zamonaviy fanga ko'ra, nutq xabariga kiritilgan va og'zaki vositalar bilan bir qatorda, semantik ma'lumotlarni uzatuvchi nolisoniy vositalarni o'rganadi. Nolisoniy vositalar fonatsion (temp, tembr, ovoz balandligi), kinetik (imohoralar, o'zini tutish, yuz ifodalari) va grafik (qo'l yozuvi, grafik qo'shimchalar) bo'lishi mumkin. Ular til tarkibiga kirmasa ham, har bir nutq birligida mavjud. Har bir jamiyatda milliy, tarixiy, madaniy va psixologik sharoitga bog'liq bo'lgan o'ziga xos nolingvistik omillar mavjud. Ushbu o'ziga xoslikni tushunish samarali muloqotda muhim rol o'ynaydi.

Ovozning balandligi va ohangi – intonatsiya ham *ta'na-dashnom* hissiy ohangini yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, *gentle reproach* - “yumshoq tanbeh”, *“dignified reproach”* (munosib ta'na-dashnom), *“mild reproach”* “yengil haqorat” kabi norozilik ifodalari turli intonatsion xususiyatlarga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'na-dashnom konseptining odatiy intonatsiyasi cheklangan temp, past hajm va cheklangan diapazon bilan tavsiflanadi, bu esa qabul qiluvchida hissiy reaksiyani qo'zg'atishga yordam beradi<sup>49</sup>. Jumladan:

1. Ovozning balandligi va ohangi: *“He said in a voice that was itself a reproach”*<sup>50</sup> U buni o'z-o'zidan tanbeh bo'lgan ovoz bilan aytdi. (Muallif tarjimasini) *“Ummatali idoradan kela solib xotiniga o'dag'ayladi: - Anavi yaramasing qani?”*<sup>51</sup> misollarda qahramonlar shunday ohang bilan gapirganki, uning ovoz ohangining ifodasi allaqachon norozilik belgisi edi.

2. Nigoh orqali norozilik bildirish:

a) *“The butler cast a reproachful glance over his shoulder at the youngwoman...”*<sup>52</sup> U yosh ayolga yelkasi uzra qarab tanbeh berdi (Muallif tarjimasini) Ushbu misolda saroy xodimi yelkasi osha yosh ayolga o'qrayib qaragan vaziyat tasvirlangan. Bunda xodim o'z nigohi orqali yosh ayolning biron bir xatti-harakatiga norozilik bildirgan va tanbeh bergan;

b) *“He looked reproachfully at Paul”*<sup>53</sup> U Pavlusga tanbeh bilan qaradi. (Muallif tarjimasini) Ushbu misolda kimdir Polga o'qrayib qaragan. Bu shuni anglatadiki, Polga qaragan kishi o'zining ta'nali qarashi orqali uning biror-bir ishidan hafsalasi pir bo'lganligi yoki noroziligini bildirgan.

3. O'zini tutish orqali: *“Perhaps he saw the reproach behind her lightness of manner, for he took her hand and shyly pressed it”*<sup>54</sup>

Ehtimol, u uning qo'lidan ushlab, uyatchanlik bilan silkitgani va uning beparvoligi uchun tanbehni ko'rgan bo'lishi mumkin. (Muallif tarjimasini) Ushbu misolda qizning tez-tez yengil harakatlari yigitga norozilik alomati bo'lib tuyuldi, shuning uchun u qizning qo'lini qisib qo'ydi. Yuqoridagi misollar shuni ko'rsatadiki, samarali ta'na-dashnom

<sup>48</sup> Крылов А. Паралингвистические средства коммуникации арабифонов и носителей русского языка Вестник РУДН. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. – М., 2014. – 120 с.

<sup>49</sup> Давыдова, Т. А. Речевой акт упрека в английском языке. Дис. ... канд. филол. наук, – М., 2003. – С. 115.

<sup>50</sup> Cartland. B. A Light to the Heart. ArrowBooks, – London, 1971. – 85 p.

<sup>51</sup> Саид Ахмад. Уфқ. Трилогия. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, – 1976. – Б. 87.

<sup>52</sup> Christie, A. Puzzles A. Christie. Vyssaja Skola, – Moscow, 1983. – P. 12.

<sup>53</sup> Waugh, E. Prose Memoirs Essays E. Waugh. Progress Publishers, - Moscow, 1980. – P. 53.

<sup>54</sup> Maughan, W. S. The Painted Veil., – M., 2000. – P. 272.

nutqiy vaziyatiga erishishda ushbu usullarni tanlash, bizning fikrimizcha, illokutiv maqsadga to'liq erishishni ta'minlaydi. Biroq I.N.Gorelovning fikriga ko'ra, paralingvistik vositalar alohida holda har doim ham samarali bo'lavermaydi: Fikrlarni ifodalashning verbal vositalari boshqa aloqa vositalarining o'rnini bosadi, qachonki ikkinchisi kommunikativ maqsadlarni ifodalash uchun yetarli bo'lmagan, samarasiz yoki oddiygina yaroqsiz bo'lganda<sup>55</sup>. Demak, noverbal vositalarning muhim rolga qaramay, ularning ekspressiv salohiyati og'zaki vositalarga qaraganda ancha nofaol va kamroq bo'ladi.

Paralingvistik vaziyatlarni tahlil qilish uchun personajlarning holati, ularning kayfiyati, holati va ular o'rtasidagi munosabatlarning batafsil tavsifini, shuningdek, muloqotchilarning umumiy bilim zaxirasini hisobga olish muhimdir. Masalan, nigoh, yuz ifodasi, imo-ishora, sukut tezligi va boshqa og'zaki bo'lmagan elementlar ta'na qiluvchining niyatlari va hissiy holati haqida ma'lumot berishi mumkin. Bundan tashqari, kontekst va avvalgi voqealarni tahlil qilish nima uchun sukut tanbeh sifatida tanlanganligini tushunishga yordam beradi.

Ta'na-dashnomning o'ziga xos psixologiyasi bor. Biz ta'na-dashnomga duch kelganimizda, tez-tez o'zimizni himoya qilishni boshlaymiz, ayblovlarni rad etish uchun imkoniyat qidiramiz. Biroq tanbeh iqtibos yoki hikmatli so'z bilan birlashtirilganda, u yanada katta kuchga ega bo'ladi. Nufuzli manbalardan iqtibos keltirish tanbehning samarisini oshiradi va yanada ishonchli qiladi.

## XULOSA

Ingliz va o'zbek tillarida "ta'na-dashnom" deb nomlangan konseptning voqealanishi turli madaniy va lingvistik doirada ifoda hamda talqin usullarida o'xshashlik va farqlarni aniqlashga yordam berdi. Ushbu tadqiqotda ikki tilli tanbeh, nutq strategiyalari, sintaktik, tarkibiy va semantik komponentlar bilan bog'liq madaniy farqlarni o'rganib chiqildi va quyidagi xulosalar shakllantirildi.

1. Ingliz va o'zbek tillaridagi suhbatdoshga nisbatan norozilik, tanqid yoki umidsizlikni ifodalash bilan bog'liq semantik komponent mavjud. Ta'na-dashnom lisoniy bayon etishda ingliz tilida "reproach", "criticism", "rebuke" (inglizcha) va o'zbek tilida "ta'na-dashnom", "tanbeh" (o'zbek), dakki, malomat, koyish, ta'zir kabi lug'aviy birlik va iboralardan foydalanish mumkin. Ikkala tilda ham tanbeh yuz ifodalari, imo-ishoralar va intonatsiya kabi noverbal vositalar bilan birga bo'lishi mumkin.

2. "Ta'na-dashnom" konsepti nominativ maydoni (ya'ni, ushbu tushunchani ifodalashda ishlatiladigan leksik birliklar) aniqlanib, ularning semantik ma'nolari, konnotativ jihatlari va tildagi qo'llanilish xususiyatlari tahlil qilindi. Konseptning ifodalanishidagi umumiyliklar va farqlar ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy o'rganildi. Shuningdek, madaniy kontekst, psixologik ta'sir va nutqiy voqeliklar orqali konseptning shakllanishi va ishlatilishi har ikki tilda tahlil qilindi. Ingliz tilida abusing, admonishing, reprimanding, reproving, insulting, scolding kabi norozilikni ifodalovchi leksemalar o'zbek tilida so'kmoq, koyimoq, tanbeh bermoq, ta'na-dashnom bermoq, tahqirlamoq, dakki bermoq kabi leksemalar bilan mos keladi. Shu bilan birga, o'zbek tilida ta'zirini bermoq, malomat qilmoq, tergamoq kabi milliy xususiyatga ega turg'un birikmalarni

<sup>55</sup> Горелов И.Н. Невербальные компоненты коммуникации. – М., 1980. – С. 36.

ham uchratish mumkin. Bunda koyish va tanbeh berish emotsional jihatdan nisbatan yumshoqroq, maslahatga yaqin ma'noga ega bo'lib, ijobiy strategik maqsadni ko'zlaydi.

3. O'zbeklarning kommunikativ madaniyatida ta'na-dashnom konseptini ifodalashda, ko'pincha, bilvosita iboralar ko'proq uchraydigan ingliz madaniyatiga nisbatan bevosita va emotsional ta'sirchanligi yuqori bo'lishi mumkin; o'zbek tilida tanbeh so'zning hurmat shakllari, tinglovchiga hurmat ko'rsatish maqsadi bilan birga bo'lishi mumkin, bu esa, tanqidning keskinligini pasaytiradi; o'zbek madaniyatida oilaviy qadriyatlarga, keksalarga hurmat-ehtiroimga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, bu ta'nalarni ifodalashda namoyon bo'ladi; ingliz madaniyati keskin vaziyatni bartaraf etish uchun tanbeh berishda istehzo va hazildan foydalanishga ko'proq moyil bo'lishi mumkin.

4. Ta'na-dashnom, bilvosita norozilikni ifodalash vositalaridan biri sifatida tergash, ayblash, tanbeh berish kabi so'zlar bilan birga, so'zlovchining tinglovchi xatti-harakatidagi xatoliklariga munosabatini ochib beradi. Norozilik darajasi ijtimoiy muhitning xususiyatlariga ko'ra ochib berilgan. Ingliz va o'zbek tilidagi matnlar tahlil qilinib, tanbeh berishning tipik usullari (so'roq qilish, qarama-qarshilik usuli, "biz boshqacha edik", eslatma usuli, tanbeh-maslahat, tanbeh-istak (koyish), tanbeh-taxmin, asossiz taxminlarni namoyish qilish usuli, "siz tushunmaysiz" usuli, parafrazlash usuli, istehzoli ta'na-dashnom-minnatdorchilik va ta'na-dashnom-kechirim so'rash, hissiyotlarga murojaat qilish usuli, ta'na-dashnom-ogohlantirish, sukunat usuli ajratildi.

5. Har ikki tilda ham tanbeh norozilik, tanqid va e'tiroz bildirish uchun umumiy muloqot strategiyasidir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun ikkala tilda ham leksik elementlar, grammatik tuzilmalar va noverbal elementlardan foydalanadilar.

6. O'zbek madaniyati ko'proq emotsionallikka yo'naltirilgan bo'lib, bu ta'na-dashnomni ifodalashda namoyon bo'ladi. O'zbek tilida tanbeh, ko'pincha, ifodali bo'lmagan noverbal elementlar va emotsional ohang bilan birga keladi. Ingliz madaniyatida norozilikni bildirishning bilvosita va mo'tadil usullari ko'proq uchraydi.

7. O'zbek madaniyatida oila va ijtimoiy qadriyatlarga, yoshi kattalarga bo'lgan hurmat ma'lum darajada yuqori bo'ladi. Bu jihatlar tanbehning qanday shakllantirilishi va unga qanday munosabatda bo'lishga ta'sir qilishi mumkin. Ingliz madaniyatida keskin vaziyatlarni tarqatish uchun hazil va kinoyadan foydalanish ko'proq uchraydi.

8. Har ikkala til ham tanqidni ifodalashda o'ziga xos leksik va grammatik xususiyatlarga ega. Masalan, o'zbek tilidagi tanbeh ko'proq rasmiy iboralar va xushmuomala murojaat shakllarini o'z ichiga olishi mumkin. Ingliz tilida kontekstga qarab, turli darajadagi rasmiyatchilikdan foydalanishi mumkin.

9. Ta'na-dashnom konseptining maqsadi va konteksti juda farq qilishi mumkinligini hisobga olish kerak. Ta'na-dashnom xulq-atvorni o'zgartirish, nizolarni hal qilish, norozilik bildirish yoki o'zini himoya qilishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Ma'noni tanlash va talqin qilishda kontekst, maqsadlar hamda suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatlar muhim rol o'ynaydi.

10. Ingliz va o'zbek tillarida ta'na-dashnom konseptini o'rganish madaniyatlararo muloqotdagi farqlarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi va turli madaniy kontekstlarda samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, u muloqot strategiyalarini tahlil qilish va sharhlashda madaniy jihatlarni hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi.



**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ  
DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ  
ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**АТАБОЕВ ИСРОИЛЖОН МИРЗА УГЛЫ**

**РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «УПРЁК-ПОРИЦАНИЕ» В  
АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное  
языкознание и переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Ташкент - 2024**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.4.PhD/Fil2925.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете.

Автореферат диссертации размещён на трёх (узбекский, русский, английский (резюме)) языках на веб-странице Научного совета ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:**

**Рустамов Илхом Турсунович**  
доктор философии (PhD) по  
филологическим наукам, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Тешабоева Зиёдахон Қодировна**  
доктор филологических наук, профессор

**Насруллаева Нафиса Зафаровна**  
доктор филологических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Ташкентский государственный педагогический университет**

Защита диссертации состоится «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года в \_\_\_\_\_ часов на заседании Разового совета при Научном совете DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 по присуждению учёных степеней при Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (Адрес: 100100, Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хос Хожиба, 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44, e-mail: ([www.tsuull.uz](mailto:www.tsuull.uz)) [monitoring@navoiy-uni.uz](mailto:monitoring@navoiy-uni.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (зарегистрирована за №\_\_\_\_\_). (Адрес: 100100, Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хос Хожиба, 103. Тел.: (99871) 281-42-44 ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz))).

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года.

(протокол реестра рассылки № \_\_\_\_\_ от «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года).

**Нормуродова Н.З.**

Председатель Разового совета при Научном совете по присуждению учёных степеней,  
доктор филологических наук, профессор

**Пардаев К.У.**

Учёный секретарь Разового совета при Научном совете по присуждению учёных степеней,  
доктор филологических наук, профессор

**Дадабоев Х.А.**

Заместитель председателя научного семинара  
Разового совета при Научном совете  
по присуждению учёных степеней,  
доктор филологических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Современные антропоцентрические исследования в мировой лингвистике играют основную роль в понимании влияния языка на человеческую культуру и разум, в то время как исследования помогают понять, как язык формировался и развивался в контексте человеческой деятельности, культуры и технологий. Исследования в области лингвистической антропологии изучают, какие факторы влияют на формирование языка, включая социальные структуры, исторические события, технологические инновации и многие другие аспекты жизни человека. Постоянное совершенствование научных исследований о взаимоотношениях языка и культуры, языка и общества требует перекрестного рассмотрения различных аспектов закономерностей языкового творчества человека в сфере несвязанных между собой языков и лингвокультур, поскольку их исследование в различных лингвистических аспектах является теоретическое и имеет практическое значение.

Интеграция когнитивной и прагматической парадигм в мировой лингвистике приведет к более глубокому и широкому пониманию языка и коммуникации. Объединяя эти парадигмы, исследователи получают представление об умственных процессах, лежащих в основе формирования языка, о когнитивных структурах, формирующих восприятие мира, и об их выражении посредством речи и коммуникативного поведения. Такая интеграция способствует более широкому анализу языковых явлений, позволяя исследователям изучить сложные связи между познанием, языком и социальным взаимодействием, а также изучить концепта «упрёк-порицание» из этого отношения с использованием когнитивных и прагматических подходов, позволяет глубже понять, как это понятие работает в языке и обществе. Оба подхода дополняют друг друга, раскрывая роль и значение концепта «упрёк-порицание» в общении. Дальнейшие исследования в этой области приобретают все большее значение для установления позитивных межкультурных отношений между людьми в нашей повседневной жизни.

В период последних реформ в нашей стране бурно развиваются различные отрасли, особенно искусственный интеллект и компьютерная лингвистика. В свою очередь, в связи с международными культурными связями возникла также необходимость изучения коммуникативных норм, специальной лексики каждого народа, сопоставление ее с местными названиями и приведение ее в целостную систему является одной из важнейших задач современной лингвистики. По этому поводу «В нынешний период глобализации каждый народ, каждое независимое государство придает приоритетное значение обеспечению своих национальных интересов, прежде всего, сохранению и развитию своей культуры, исконных ценностей, родного языка»<sup>56</sup>. В связи с этим вопросы освещения лингвистами

---

<sup>56</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeiini tubdan oshirish choratadbirlari to‘g‘risida»gi 21.10.2021-yildagi PF-5850-son Farmoni.

национальной концептуальной картины мира в интеграции парадигм, междисциплинарности ждут своего решения.

Данная диссертация в определенной степени служит выполнению задач, определенных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2017 года № УП-4958 «О дальнейшем совершенствовании системы послевузовского образования»<sup>57</sup>, от 20 апреля 2017 года ПП №-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования»<sup>58</sup>, постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 августа 2017 года № 610 «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях»<sup>59</sup>, Законе Республики Узбекистан от 29 октября 2019 года № ЗРУ-576 «О науке и научной деятельности»<sup>60</sup>, от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан»<sup>61</sup> и других нормативно-правовых актах, касающихся данной деятельности.

**Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологии Республики.** Исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологии Республики «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** Исследования, связанные с такими понятиями, как «национальная картина мира», «концепт», «концептосфера», являющиеся объектом исследования когнитивной лингвистики, появились несколько раньше, в публикациях второй половины прошлого века. Среди них немало работ по узбекской, русской и английской лингвистике. Из зарубежных ученых: Лакофф Г., Лангакер Р., Вандервекен Д., Cole P. & Морган Ж., Bach K., Харниш Р.М., Версчуерен Ж., Сearle Ж.Р., Стравсон П.Ф.<sup>62</sup>, из российских и зарубежных ученых: Асколдов С.А., Степанов Ю.С., Карасик В.И., Петлюченко Н.В., Касимова О.П., Кузнецова Л.Э., Малахова С.А., Несветайлова И.В., Давидова Т.А., Фёдорова А.Л., Каразия Н.А.,

<sup>57</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 16.02.2017-yildagi PF-4958-son.

<sup>58</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 20.04.2017-yildagi PQ-2909-son.

<sup>59</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 11.08.2017-yildagi 610-son

<sup>60</sup> O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” 29.10.2019-yildagi O‘RQ-576-son

<sup>61</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 19.05.2021 yildagi PQ-5117-son

